

Iqtisodiyot fakulteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası assistenti Narziyeva Guzal tomonidan “Pul va banklar” fanidan “Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari” mavzusida tayyorlangan ochiq ma’ruza darsi ishlanmasiga

## TAQRIZ

Nobank kredit tashkilotlari — bu tijorat banklari faoliyatidan tashqari moliyaviy xizmatlarni amalga oshiruvchi, kredit berish va moliyalashtirish jarayonida ishtirok etuvchi muassasalar hisoblanadi. Ular iqtisodiyotda muhim o‘rin tutib, ayniqsa kichik biznes va aholini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.



Mazkur mavzu bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, chunki nobank kredit tashkilotlari moliya bozorining rivojlanishida, pul mablag‘larining samarali taqsimlanishida hamda iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati orqali aholining keng qatlamlari kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ishlanmada nobank kredit tashkilotlarining asosiy turlari, jumladan, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar, kredit uyushmalari va lizing kompaniyalari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, ularning tijorat banklaridan farqli jihatlari, faoliyat yuritish mexanizmlari va iqtisodiyotdagi o‘rni izchil yoritilgan.

Muallif tomonidan mavzu mantiqan to‘g‘ri ketma-ketlikda bayon etilgan bo‘lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va ko‘rgazmali vositalardan samarali foydalanilgan. Dars ishlanmasida nazariy materiallar bilan bir qatorda test savollari, amaliy misollar va muhokama uchun savollar ham keltirilgan bo‘lib, bu talabalarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Narziyeva Guzal tomonidan tayyorlangan ochiq ma’ruza darsi ishlanmasi o‘quv-uslubiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bo‘lib, zamonaviy talablariga javob beradi hamda talabalarga dars o‘tish jarayonida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit kafedrası dotsenti, i.f.u.



Xudoyberdiyev N.U.

Iqtisodiyot fakulteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida assistenti Narziyeva Guzal tomonidan “Pul va banklar” fanidan “Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari” mavzusida tayyorlangan ochiq ma’ruza darsi ishlanmasiga

## TAQRIZ

Zamonaviy moliya tizimida nobank kredit tashkilotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular kredit munosabatlarini rivojlantirishda, moliyaviy xizmatlar ko‘lamini kengaytirishda hamda iqtisodiyotning turli subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan, tanlangan mavzu dolzarb va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur dars ishlanmasida nobank kredit tashkilotlarining mohiyati, vazifalari va asosiy turlari keng yoritilgan. Xususan, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar, kredit uyushmalari va lizing kompaniyalarining faoliyati sodda va tushunarli tarzda bayon etilgan. Ularning iqtisodiyotdagi o‘rni, afzalliklari va o‘ziga xos xususiyatlari aniq misollar orqali tushuntirilgan.

Dars ishlanmasi mantiqan izchil tuzilgan bo‘lib, unda kirish, asosiy qism va xulosa o‘zaro uyg‘unlikda bayon etilgan. Muallif tomonidan interfaol pedagogik usullardan samarali foydalanilgan, bu esa talabalarni mavzuga jalb etish va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dars davomida foydalanish uchun test savollari va amaliy topshiriqlar kiritilgani ijobiy jihatlardan biridir.

Umuman olganda, Narziyeva Guzal tomonidan tayyorlangan ochiq ma’ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimotlar, ma’ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari bir-biriga bog‘langan holda to‘liq ko‘rsatilgan hamda o‘quv-uslubiy jihatdan to‘g‘ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o‘tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

“Buxgalteriya hisobi va audit”  
kafedrasida mudiri i.f.d professor:

